


“TASDIQLAYMAN”
“Adolat” milliy huquqiy
axborot markazi direktori
 F. Tojiyev
2022-yil “___”

TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ
(Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga e'lon joylashtirish to'g'risida)

2022 yil 23 iyun

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasining **Jinoyat** va **Jinoyat prosessual kodekslariga** ehtiyoj majudligi, davlat organlari shuningdek ko'plab kitobxonlarning talab va takliflarini nobatga olgan holda nashr etish masalasini ko'rib chiqish va e'lon matnini Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

**Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga joylashtiriladigan tanlov shartlari
va hujjatlari bo'yicha e'lon matni**

Tanlovga qo'yilayotgan xizmat turi:

O'zbekiston Respublikasining **Jinoyat** va **Jinoyat prosessual kodeksilarini** (o'zbek-rus tillarida) kirill yozuvida chop etish.

Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar:

1. Nashr etish ishlarini “Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish;

2. Tegishli litsenziya va guvohnomaga ega bo'lgan va ushbu sohada kamida 3 yillik tajriba hamda o'z texnik bazasiga ega bo'lish;

3. Belgilangan vazifalarni g'olib chiqqan tashkilot (“Bajaruvchi”) tomonidan mahsulot (kodeks)larni 7 (yetti) ish kuni davomida to'liq tayyorlab “Buyurtmachi”ga topshirish;

4. Tanlov ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida korrupsiyon holatlarga yo'l qo'ymaslik xususida ariza taqdim etish;

5. Tanlovda g'olib chiqqan tashkilot (korxona) bilan Markaz o'rtasida rasmiylashtirilgan shartnomada ko'zda tutilgan ishlar belgilangan muddatda bajarilmasa, har bir kechikkan kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya undirish amaliyoti mayjudligi inobatga olinsin;

6. Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan 7 ta takliflar quyidagi talablarga asosan elektron tartibda baholanadi. Xususan, (ariza, kafillik xati, tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot, uning moliyaviy holati haqida ma'lumot, taklif qilinayotgan xizmatning texnik tavsifiga qiyosiy jadval).

Nashr etiladigan mahsulotning umumiy tavsifi:

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat prosessual kodekslarining formati: 60x90, 1/16, tisneniya bumvinilli qattiq muqova, ichki sahifa oq-qora, 70 gr offset qog'ozni tashkil etadi.

No	Mahsulot nomi	Kitob-adadi (dona)	Hajmi	Bir dona narx (QQS bilan)
1	Jinoyat kodeksi	1000	608 bet	75 000
2	Jinoyat prosessual kodeksi (o'zbek)	1000	504 bet	70 000
3	Ugolovno-prosessualniy kodeks	500	472 bet	83 000

Buyurtmachi nomi: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Buyurtmachi mansabdor shaxsining lavozimi, F.I.Sh., manzil va telefon raqami: direktor F. Tojiyev Mirobod tumani, Amir Temur shohko‘chasi, 19-uy. STIR: 201 453 166, 71 233-28-18

Tanlov taklifini rasmiylashtirish shakli: elektron talablar asosida.

Buyurtmani bajarish muddati: nashrning elektron maketi berilgach 7 (yetti) kun.

Tanlov o‘tkazish manzili: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shohko‘chasi, 19-uy.

Boshlanish muddati: 23.06.2022-yil

Tugallanish muddati: 01.07.2022-yil

Takliflarni topshirishning oxirgi muddati: 2022-yil 1-iyul.

Takliflarni baholashning asosiy mezonlari:

Tannarx, muddat, ko‘rsatiladigan xizmatlar turi, buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan e’lon shartlariga muvofiq bajarish muddati.

• Komissiya tomonidan xizmat ko‘rsatish sifatli va o‘z vaqtida bajarish bilan bog‘liq boshqa holatlar ham mezon sifatida onlayn orqali baholanadi;

• Takliflar komissiya tomonidan elektron talablarga asosan baholanishi natijasida tanlov g‘olibi aniqlanadi.


**Marketing, reklama
va obuna bo‘limi boshlig‘i**


F. Kuldashev

Moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i


M. Yerdashev

**Mehnatni muhofaza qilish
va xo‘jalik ishlari mudiri**


A. Tursunov

**Rasmiy nashlarni va yuridik adabiyotlarni
tayyorlash va tahrir qilish bo‘limi boshlig‘i**


Sh. Abdullayev

23.06.2022-yil